

## “ADOLAT” KONSEPTINING BADIY DISKURSDAGI KOGNITIV TABIATI VA KONSEPTUAL TALQINLARI

Azizov Solijon Uchmas o‘g‘li

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o‘qituvchisi

E-mail: solijonazizov1@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0003-0467-7003>

UO‘K 81‘42:81‘23

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18976461>

**Annotatsiya.** Badiiy matnlar til va tafakkur o‘rtasidagi munosabatni konseptual darajada aks ettiruvchi muhim diskurs maydonidir. Mazkur tezisda ushbu diskurs doirasida “adolat” konseptining kognitiv-pragmatik mazmuni va uning konseptosferadagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda “adolat” konsepti syujet va konfliktni tashkil etuvchi markaziy semantik birlik sifatida talqin etilib, uning normativ, baholovchi, jazolovchi va axloqiy komponentlari aniqlanadi. Shuningdek, adolatning muvozanat, sud, yo‘l va jazo metaforalari orqali konseptualizatsiya qilinishi ko‘rsatib beriladi. Tahlil natijalari “adolat” konseptining konseptosferaviy jihatdan universal bo‘lib, badiiy diskurslarda madaniy xususiyatlarga mos holda namoyon bo‘lishini tasdiqlaydi.

**Kalit so‘zlar:** badiiy diskurs, “adolat” konsepti, konseptosfera, kognitiv tahlil, pragmatik yondashuv, konseptual metafora, lingvomadaniy xususiyatlar, qiyosiy diskurs tahlili.

**Abstract.** Literary texts represent an important discursive space that reflects the relationship between language and cognition at a conceptual level. This paper analyzes the cognitive-pragmatic content of the concept of ‘justice’ and its place within the conceptual sphere of literary discourse. Justice is interpreted as a central semantic unit organizing plot development and conflict, with its normative, evaluative, punitive, and moral components identified. The study also examines the conceptualization of justice through metaphorical models such as balance, court, path, and punishment. The results demonstrate that the concept of ‘justice’ is conceptually universal while being discursively realized in accordance with cultural specificities.

**Key words:** literary discourse, concept of ‘justice’, conceptual sphere, cognitive analysis, pragmatic approach, conceptual metaphor, linguocultural features, comparative discourse analysis.

**Аннотация.** Художественные тексты представляют собой важное дискурсивное пространство, отражающее взаимосвязь языка и мышления на концептуальном уровне. В данной работе анализируется когнитивно-прагматическое содержание концепта «справедливость» и его место в концептосфере художественного дискурса. Концепт «справедливости» рассматривается как центральная семантическая единица, формирующая сюжет и конфликт, с выделением его нормативного, оценочного, карательного и нравственного компонентов. Также исследуется концептуализация справедливости через метафорические модели равновесия, суда, пути и наказания. Результаты анализа подтверждают универсальность концепта «справедливости» при его дискурсивной реализации с учётом культурной специфики.

**Ключевые слова:** художественный дискурс, концепт «справедливости», концептосфера, когнитивный анализ, прагматический подход, концептуальная метафора, лингвокультурные особенности, сравнительный дискурсивный анализ.

### Kirish

Badiiy diskurs insonning ijtimoiy tajribasi, axloqiy qarashlari va madaniy qadriyatlarini til orqali konseptual shakllantiradigan murakkab semantik-kognitiv makon hisoblanadi. Bunday diskurs doirasida markaziy ijtimoiy tushunchalar tasvirlanar ekan, ular oddiy voqelik aks ettirishi bilangina cheklanmaydi, balki muallifning dunyoqarashi, jamiyatga munosabati va baholash strategiyalarini ham ifodalaydi. Shu jihatdan “adolat” konsepti badiiy diskursda alohida ahamiyat kasb etib, u ko‘pincha syujet harakatlantiruvchi kuch, konflikt manbayi va axloqiy mezon sifatida namoyon bo‘ladi.

“Adolat” konsepti universalligi bilan birga, turli lingvomadaniy muhitlarda o‘ziga xos kognitiv modellar va pragmatik talqinlar orqali shakllanadi. Badiiy diskursda *adolat qonun, vijdon, jazo, javobgarlik, gunoh va kechirim* kabi tushunchalar bilan uzviy bog‘lanib, konseptosfera doirasida murakkab munosabatlar tizimini hosil qiladi. Shu sababli adolatni alohida tushuncha sifatida emas, balki konseptosferaviy birlik sifatida o‘rganish zarurati yuzaga keladi. Bu yondashuv adolatning

**“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

nafaqat semantik mazmunini, balki uning diskursdagi funksional va pragmatik vazifalarini ham aniqlash imkonini beradi.

Turli tillar badiiy diskursida adolat konsepti bir xil semantik yadroni saqlagan holda, milliy-madaniy tafakkurga xos bo‘lgan baholash mexanizmlari orqali talqin qilinadi. Ayrim diskurslarda adolat huquqiy-institutsional me‘yorlar asosida tushunilsa, boshqalarida u axloqiy vijdon yoki falsafiy haqiqat bilan bog‘liq holda konseptualizatsiya qilinadi. Mazkur holat “adolat” konseptining kognitiv-pragmatik jihatdan ko‘p qatlamli ekanini ko‘rsatadi va uni qiyosiy tahlil qilishni ilmiy jihatdan dolzarb qiladi.

Shu munosabat bilan ushbu tezisda “adolat” konsepti turli tillar badiiy diskursida kognitiv modellar, konseptosferaviy aloqalar va pragmatik strategiyalar nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi “adolat” konseptining badiiy diskursda qanday lisoniy vositalar orqali ifodalanishi, u qaysi konseptlar bilan tizimli munosabatga kirishi hamda o‘quvchiga qanday pragmatik ta’sir ko‘rsatishini aniqlashdan iborat.

**“Adolat” konseptining konseptosferadagi o‘rni va kognitiv tuzilmasi.** Kognitiv lingvistika doirasida konsept muayyan madaniyatga xos bo‘lgan bilimlar, baholashlar va tajribalar majmui sifatida qaraladi. Shu sababli konseptlar yakka holda emas, balki o‘zaro bog‘langan tizim – konseptosfera tarkibida faoliyat yuritadi. “Adolat” konsepti ana shu tizimda ijtimoiy va axloqiy mazmunga ega bo‘lgan konseptlar guruhining markaziy elementi sifatida namoyon bo‘ladi.

Y.S. Stepanov “konseptosfera” tushunchasini izohlar ekan, shunday yozadi: “Konseptlar madaniyatning ichki semantik makonini tashkil etadi; aynan shu makonda jamiyatning asosiy qadriyatlarini mustahkamlanadi” [7]. Mazkur fikr “adolat” konseptining nega badiiy diskursda doimo axloq, qonun, vijdon, javobgarlik kabi tushunchalar bilan yonma-yon kelishini tushuntiradi. Badiiy matnda “adolat” konsepti ko‘pincha konseptosferaning yadroviy qismida joylashib, syujet rivoji va konfliktlar tizimini belgilovchi semantik markaz vazifasini bajaradi.

“Adolat” konseptining kognitiv tuzilmasi bir qatlamli emas, balki bir necha semantik-kommunikativ komponentlardan tashkil topadi. Ushbu komponentlar turli tillar badiiy diskursida turlicha faollashadi, biroq ularning umumiy modeli saqlanib qoladi.

Birinchi komponent – **normativ komponent** bo‘lib, u adolatni ijtimoiy me‘yorlar, qonun-qoidalar va rasmiy tartiblar bilan bog‘laydi. Aynan shu qatlam ingliz va amerika badiiy diskursida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu diskurslarda adolat ko‘pincha “qonun oldida tenglik” tamoyili asosida konseptualizatsiya qilinadi va badiiy matn pragmatik jihatdan qonuniylikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ikkinchi komponent – **baholovchi komponent** bo‘lib, u adolatni subyektiv baho bilan bog‘laydi. Adolat doimo kimningdir harakatiga berilgan baho sifatida namoyon bo‘ladi: aybdor yoki aybsiz, haqli yoki nohaqli. R.U. Langaker mazkur holatni quyidagicha izohlaydi: “Ma’no obyektiv voqelikni emas, balki so‘zlovchining vaziyatni qanday talqin qilishini aks ettiradi” [4]. Bu yondashuv badiiy diskursda “adolat” konseptining muallif va qahramon nuqtayi nazariga bog‘liq holda shakllanishini ko‘rsatadi. Bir xil voqea turli qahramonlar uchun turlicha “adolatlilik” darajasiga ega bo‘lishi mumkin.

Uchinchi komponent – **jazolovchi komponent** bo‘lib, u adolatni javobgarlik va jazo bilan bog‘laydi. Badiiy diskursda bu komponent ko‘pincha konfliktning yakuniy bosqichida faollashadi. Jazolash orqali buzilgan muvozanat tiklanadi va adolat ramziy tarzda qaror topadi. Ushbu komponent, ayniqsa, detektiv va ijtimoiy romanlarda yetakchi hisoblanadi.

To‘rtinchi komponent – **axloqiy komponent** bo‘lib, u adolatni ichki vijdon, ma’naviy mas’uliyat va shaxsiy tanlov bilan bog‘laydi. Bu qatlam o‘zbek va rus badiiy diskursida ayniqsa faol namoyon bo‘ladi. Adolat bu yerda tashqi suddan ko‘ra ichki axloqiy baholash orqali aniqlanadi.

V.I. Karasik diskursning madaniy tabiatiga e’tibor qaratib, shunday ta’kidlaydi: “Diskurs shaxsning qadriyatlarini va jamiyatning madaniy me‘yorlari o‘rtasidagi muloqot shaklidir” [6]. Mazkur fikr badiiy diskursda “adolat” konseptining nega ko‘pincha shaxsiy fojea, ichki ziddiyat va axloqiy tanlov orqali ochilishini izohlaydi.

Shunday qilib, “adolat” konsepti konseptosferada ko‘p qatlamli, dinamik va diskursga bog‘liq birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Uning normativ, baholovchi, jazolovchi va axloqiy komponentlari turli tillar badiiy diskursida turlicha nisbatda faollashib, milliy-madaniy tafakkur xususiyatlarini ochib beradi.

**“Adolat” konseptining metaforik modellar orqali kognitiv modellashtirilishi.** Kognitiv lingvistika doirasida abstrakt tushunchalar bevosita emas, balki insonning kundalik tajribasiga tayangan holda, metaforik modellar orqali anglanishi e’tirof etiladi. Ayniqsa, adolat kabi murakkab va

**“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

ko‘p qatlamli tushunchalar badiiy diskursda konkret obrazlar, ramzlar va vaziyatlar orqali konseptualizatsiya qilinadi. Shu sababli “adolat” konseptini metaforik modellar orqali tahlil qilish uning kognitiv mohiyatini ochishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

J.Lakof va M.Jonson kognitiv metafora nazariyasini asoslar ekan, quyidagi fikrni ilgari suradilar: “Inson abstrakt tushunchalarni bevosita idrok eta olmaydi; ularni tushunish konkret tajribaga asoslangan metaforalar orqali amalga oshadi”. Mazkur yondashuv badiiy diskursda “adolat” konseptining nega ko‘pincha *tarozi, sud, yo‘l* yoki *jazo* kabi obrazlar orqali ifodalanishini tushuntiradi. Bu metaforalar tasodifiy emas, balki “adolat” konseptining kognitiv tuzilmasini tashkil etuvchi asosiy sxemalarni aks ettiradi.

**“ADOLAT – MUVOZANAT (TAROZI)” metaforik modeli.** “Adolat” konseptining eng qadimiy va universal metaforalaridan biri – bu muvozanat metaforasidir. Tarozni obrazi adolatni tenglik, me‘yor va mutanosiblik bilan bog‘laydi. Badiiy diskursda bu metafora buzilgan muvozanatni tiklash g‘oyasi bilan uzviy aloqada namoyon bo‘ladi: jinoyat sodir bo‘lganda muvozanat buziladi, jazo orqali esa u qayta tiklanadi. Bu metafora ingliz va amerika badiiy diskursida ayniqsa faol bo‘lib, adolatni obyektiv va neytral mexanizm sifatida talqin qilishga xizmat qiladi. Pragmatik jihatdan u o‘quvchida “har bir qilmish javobsiz qolmaydi” degan kognitiv kutilmani shakllantiradi.

**“ADOLAT – SUD” metaforik modeli.** Sud metaforasi adolatni rasmiy baholash, dalillarni ko‘rib chiqish va hukm chiqarish jarayoni sifatida tasvirlaydi. Badiiy diskursda bu model voqealarning mantiqiy yakuniga erishish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Qahramonlar harakatlari sud metaforasi doirasida baholanadi va ularning axloqiy qiyofasi aniqlanadi. T.A. van Deyk diskursning ijtimoiy tabiatini tahlil qilib, shunday yozadi: “Diskurs orqali jamiyatdagi hukmron baholash mezonlari va me‘yorlar legitimlashtiriladi” [5]. Bu fikr badiiy diskursda sud metaforasining pragmatik funksiyasini ochib beradi: adolat orqali muallif jamiyatda qabul qilingan axloqiy va huquqiy me‘yorlarni mustahkamlaydi.

**“ADOLAT – YO‘L” metaforik modeli.** Adolatning yo‘l metaforasi uni axloqiy tanlov va harakatlar jarayoni sifatida talqin qiladi. Bu modelda “to‘g‘ri yo‘l”, “adashish”, “yo‘ldan chiqish” kabi iboralar adolat va nohaqlikning kognitiv belgilariga aylanadi. Ushbu metafora o‘zbek va rus badiiy diskursida ayniqsa faol bo‘lib, adolatni ichki axloqiy tanlov bilan bog‘laydi. Bu yerda adolat yakuniy hukm emas, balki jarayon sifatida tasvirlanadi. Qahramonning adolatli yoki nohaq bo‘lishi uning qaysi yo‘lni tanlashiga bog‘liq holda ochiladi. Pragmatik jihatdan bu metafora o‘quvchini axloqiy mulohazaga undaydi.

**“ADOLAT – JAZO” metaforik modeli.** Jazo metaforasi adolatni javobgarlik va oqibat bilan bog‘laydi. Bu modelda adolat buzilgan tartibni tiklash vositasi sifatida talqin qilinadi. Badiiy diskursda jazo nafaqat huquqiy, balki axloqiy kategoriya sifatida ham namoyon bo‘ladi. R.U. Langaker ma‘no va baholash o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta‘kidlab, shunday deydi: “Til orqali ifodalangan har qanday ma‘no baholash elementini o‘z ichiga oladi” [4]. Demak, jazo metaforasi orqali adolat konsepti baholovchi va jazolovchi komponentlarni birlashtiradi hamda diskursning pragmatik kuchini oshiradi.

Metaforik modellar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “adolat” konsepti badiiy diskursda tasodifiy obrazlar orqali emas, balki barqaror kognitiv sxemalar asosida ifodalanadi. Muvozanat, sud, yo‘l va jazo metaforalari “adolat” konseptining turli semantik qatlamlarini faollashtirib, o‘quvchida murakkab va ko‘p o‘lchovli adolat tasavvurini shakllantiradi.

**Ingliz va amerika badiiy diskursida “adolat” konseptining kognitiv-pragmatik talqini.** Ingliz va amerika badiiy diskursida “adolat” konsepti ko‘pincha huquqiy-institutsional model asosida konseptualizatsiya qilinadi. Bu modelda adolat shaxsiy vijdon yoki axloqiy sezgidan ko‘ra, qonun, sud, dalil va rasmiy tartiblar bilan bog‘liq holda ifodalanadi. Badiiy matnda adolat ko‘pincha ijtimoiy tizimning barqarorligini ta‘minlovchi mexanizm sifatida namoyon bo‘lib, jinoyat va jazolash o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlik orqali ochiladi:

**1. Huquqiy-institutsional kognitiv model.** Mazkur diskursda adolat konsepti “qonun ustuvorligi” tamoyiliga tayangan holda shakllanadi. Qahramonlar harakatlari individual axloqiy mezonlar asosida emas, balki rasmiy normalar asosida baholanadi. Natijada “adolat” konsepti obyektiv va neytral mexanizm sifatida talqin qilinadi. Bu holat ingliz va amerika badiiy matnlarida adolatning shaxsiy emas, balki tizimli xususiyat kasb etishiga olib keladi. T.A. van Deyk diskursning ijtimoiy mohiyatini izohlar ekan, shunday ta‘kidlaydi: “Diskurs ijtimoiy kuch, hokimiyat va ideologiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u orqali jamiyatda qabul qilingan me‘yorlar mustahkamlanadi” [5]. Ushbu fikr ingliz va amerika badiiy diskursida “adolat” konseptining pragmatik vazifasini tushuntiradi: adolat orqali jamiyatda mavjud huquqiy tartib legitimlashtiriladi va o‘quvchida qonuniylikka ishonch shakllantiriladi.

**2. Detektiv va sud romanlarida “adolat” konsepti.** Ingliz va amerika badiiy diskursida “adolat” konseptining eng yorqin namoyon bo‘lishi detektiv va sud janrlarida kuzatiladi. Bu janrlarda adolat jinoyatni aniqlash, aybdorni fosh etish va jazolash jarayoni orqali konseptualizatsiya qilinadi. Syujet odatda adolatning buzilishi bilan boshlanib, uning tiklanishi bilan yakunlanadi. Masalan, detektiv diskursda haqiqatni topish adolatning muhim kognitiv komponenti sifatida namoyon bo‘ladi. Aybdorni aniqlash – bu nafaqat syujet talabi, balki “adolat” konseptining amalga oshish shaklidir. Bu jarayonda dalil, mantiq va xolis baholash ustuvor o‘rin egallaydi. Jumladan, A.Kristi asarlarida adolat ko‘pincha muallifning axloqiy hukmi bilan emas, balki mantiqiy xulosa va faktlar asosida qaror topadi. Bu holat “adolat” konseptining ratsional-kognitiv model asosida ifodalanishini ko‘rsatadi.

**3. Baholash strategiyalari va pragmatik ta’sir.** Ingliz va amerika badiiy diskursida “adolat” konsepti pragmatik jihatdan o‘quvchining baholash pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Muallif odatda ochiq axloqiy xulosa bermaydi; aksincha, dalillar va voqealar ketma-ketligi orqali o‘quvchini o‘zi xulosa chiqarishga undaydi. Bu strategiya adolat konseptining obyektivligini kuchaytiradi. Baholash strategiyalarida quyidagi usullar faol qo‘llanadi: (1) dalillarni ketma-ket taqdim etish; (2) qarama-qarshi nuqtayi nazarlarni to‘qnash keltirish; (3) yakuniy hukmni kechiktirish. Natijada “adolat” konsepti o‘quvchi ongida mantiqiy va ishonchli tushuncha sifatida shakllanadi.

**4. Pragmatik funksiyalar.** Ingliz va amerika badiiy diskursida “adolat” konsepti bir nechta pragmatik funksiyani bajaradi: (1) **normativ funksiya** – jamiyatda qabul qilingan huquqiy me’yorlarni mustahkamlash; (2) **regulyativ funksiya** – xatti-harakatlarning oqibatini ko‘rsatish; (3) **ideologik funksiya** – qonun ustuvorligini ijobiy qadriyat sifatida tasdiqlash. Shu tariqa “adolat” konsepti ingliz va amerika badiiy diskursida nafaqat mavzu, balki o‘quvchi ongiga ta’sir etuvchi kuchli pragmatik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Ingliz va amerika badiiy diskursida “adolat” konsepti asosan huquqiy-institutsional kognitiv model asosida shakllanadi. Bu diskursda adolat shaxsiy vijddan ko‘ra tizimli baholash mexanizmlariga tayanadi va pragmatik jihatdan ijtimoiy tartibni legitimlashtirishga xizmat qiladi.

**O‘zbek badiiy diskursida “adolat” konseptining axloqiy-ma’naviy modeli.** O‘zbek badiiy diskursida “adolat” konsepti huquqiy-institutsional kategoriya sifatida emas, balki axloqiy-ma’naviy qadriyat sifatida konseptualizatsiya qilinadi. Bu diskursda adolat tashqi sud yoki rasmiy qonunlar bilan cheklanmaydi; u, avvalo, vijdon, halollik, iymon va ma’suliyat tushunchalari bilan uzviy bog‘langan holda namoyon bo‘ladi. Shu bois o‘zbek badiiy matnlarida adolat ko‘pincha ichki axloqiy baholash mexanizmi orqali ifodalanadi.

**1. Axloqiy-ma’naviy kognitiv model.** O‘zbek badiiy diskursida “adolat” konseptining markazida axloqiy tanlov turadi. Qahramonning adolatli yoki nohaq bo‘lishi ko‘pincha qonuniy baho bilan emas, balki uning vijdon oldidagi javobgarligi bilan belgilanadi. Bu holat adolat konseptining ichki sud modeli asosida shakllanishini ko‘rsatadi. Qahramon ko‘pincha o‘zini jamiyat emas, balki o‘z vijdoni hukm qiladi. Bu modelda adolat konsepti quyidagi kognitiv belgilar orqali namoyon bo‘ladi: (1) halollik va poklik; (2) haq va nohaqni farqlash; (3) sabr va kechirim; (4) gunoh va tavba. Mazkur belgilar “adolat” konseptosferasida axloqiy-ma’naviy qatlamning ustuvorligini ta’minlaydi.

**2. Adolat va vijdon o‘rtasidagi konseptual bog‘liqlik.** O‘zbek badiiy diskursida “adolat” konsepti ko‘pincha vijdon konsepti bilan birgalikda aktualizatsiya qilinadi. Vijdon adolatning ichki mezoni sifatida namoyon bo‘lib, qahramonning harakatlarini baholashda asosiy rolni bajaradi. Adolat bu yerda tashqi jazolashdan ko‘ra, ichki pushaymon va mas’uliyat bilan bog‘lanadi. Y.S. Stepanov axloqiy konseptlar haqida fikr yuritarkan, quyidagicha ta’kidlaydi: “Axloqiy konseptlar jamiyatni tashqi majburlash orqali emas, balki ichki e’tiqod va qadriyatlar orqali boshqaradi” [7]. Mazkur fikr o‘zbek badiiy diskursida “adolat” konseptining nega aynan ichki axloqiy mexanizm sifatida namoyon bo‘lishini izohlaydi. Bu diskursda adolat jazodan ko‘ra ko‘proq ma’naviy poklanish bilan yakunlanadi.

**3. Adolatning pragmatik funksiyalari.** O‘zbek badiiy diskursida “adolat” konsepti kuchli pragmatik-tarbiyaviy funksiyani bajaradi. Badiiy matn o‘quvchini muayyan axloqiy xulosaga majburlamaydi, biroq qahramon taqdiri orqali adolatli va nohaq xatti-harakatlarning oqibatini yaqqol ko‘rsatadi. Natijada o‘quvchi adolatni shaxsiy mas’uliyat va vijdon bilan bog‘langan tushuncha sifatida idrok etadi. V.I. Karasik diskursning qadriyatga yo‘naltirilganligini izohlar ekan, shunday yozadi: “Qadriyatlarga asoslangan diskursda baholash ochiq hukm orqali emas, balki vaziyat va obrazlar orqali amalga oshiriladi” [6]. Bu yondashuv o‘zbek badiiy diskursida “adolat” konseptining qanday qilib bilvosita, ammo kuchli pragmatik ta’sirga ega bo‘lishini ko‘rsatadi.

**4. Adolat va kechirim oppozitsiyasi.** O‘zbek badiiy diskursida adolat ko‘pincha kechirim bilan qarama-qarshi yoki o‘zaro bog‘liq holda tasvirlanadi. Bu yerda adolat faqat jazolashni emas, balki kechirishni ham o‘z ichiga olishi mumkin. Bunday talqin adolat konseptining gumanistik va

## **“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

ma’naviy yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi. Kechirim orqali adolat tiklanishi g‘oyasi adolat konseptosferasida o‘zbek mentalitetiga xos bo‘lgan muhim milliy-madaniy komponent hisoblanadi. Bu jihat o‘zbek badiiy diskursini ingliz-amerika huquqiy modelidan sezilarli darajada farqlaydi.

O‘zbek badiiy diskursida “adolat” konsepti asosan axloqiy-ma’naviy kognitiv model asosida shakllanadi. Bu diskursda adolat tashqi sud yoki rasmiy jazodan ko‘ra ichki vijdon, halollik va ma’naviy mas’uliyat bilan bog‘lanadi hamda pragmatik jihatdan tarbiyaviy va gumanistik funksiyani bajaradi.

**Rus badiiy diskursida “adolat” konseptining falsafiy-ekzistensial talqini.** Rus badiiy diskursida “adolat” konsepti huquqiy yoki axloqiy me’yor bilan cheklanmaydi; u ko‘pincha falsafiy-ekzistensial muammo sifatida qo‘yiladi. Bu diskursda adolat tashqi qonunlar bilan emas, balki insonning ichki azobi, vijdoniy javobgarligi va ma’naviy tanlovi bilan bog‘liq holda konseptualizatsiya qilinadi. Natijada adolat badiiy matnda aniq hukm yoki yakuniy qaror emas, balki doimiy ichki iztirob va savol sifatida namoyon bo‘ladi.

**Ekzistensial kognitiv model: adolat va vijdoniy azob.** Rus badiiy diskursida “adolat” konsepti ko‘pincha azob orqali anglash modeli asosida shakllanadi. Qahramon uchun adolat jazodan qochish yoki qonuniy oqlanish emas, balki aybni anglash va uni ichki azob orqali “to‘lash” bilan bog‘lanadi. Bu modelda adolat tashqi suddan ko‘ra ichki sud ustuvor ahamiyat kasb etadi. Masalan, F.Dostoyevskiy badiiy tafakkurida adolat masalasini shunday falsafiy nuqtayi nazardan qo‘yadi. Uning konsepsiyasiga ko‘ra, insonni haqiqiy jazolaydigan kuch – bu qonun emas, balki vijdondir. Bu fikrni quyidagicha umumlashtirish mumkin: “Inson uchun eng og‘ir jazo – bu o‘z aybini anglab, u bilan yolg‘iz qolishdir”. Mazkur talqin rus badiiy diskursida “adolat” konseptining nega ko‘pincha fojeaviy va ochiq yakunsiz shaklda berilishini tushuntiradi.

**Qonun va adolat o‘rtasidagi ziddiyat.** Rus badiiy diskursida “adolat” konsepti ko‘pincha huquqiy me’yorlar va axloqiy qadriyatlarining o‘zaro munosabati doirasida talqin qilinadi. Badiiy matnlarda qonun va adolat tushunchalari har doim ham mutlaq mos kelmasligi mumkinligi masalasi ko‘tarilib, bu holat qahramonning ichki axloqiy tanlovi va mas’uliyatini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. Natijada qahramon harakati huquqiy va axloqiy mezonlar nuqtayi nazaridan turlicha baholanishi mumkin. V.I. Karasik diskurs va qadriyatlar munosabatini sharhlar ekan, shunday ta’kidlaydi: “Qadriyatlarga yo‘naltirilgan diskursda asosiy baho rasmiy me’yorlar bilan emas, balki shaxsiy axloqiy mezonlar bilan belgilanadi”. Bu yondashuv rus badiiy matnlarida adolat konseptining nega doimo ichki ziddiyat, shubha va iztirob bilan birga kelishini izohlaydi.

**Adolat va gunoh konseptlari o‘rtasidagi konseptual aloqalar.** Rus badiiy diskursida adolat konsepti ko‘pincha gunoh, tavba va poklanish konseptlari bilan uzviy bog‘langan. Adolat bu yerda jazolashdan ko‘ra, ma’naviy poklanish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Qahramon adolatga jazodan keyin emas, balki gunohni anglab, ichki o‘zgarish orqali yetadi. Bu holat “adolat” konseptosferasida rus mentalitetiga xos bo‘lgan falsafiy chuqurlik va ekzistensial tafakkur ustuvorligini ko‘rsatadi.

Rus badiiy diskursida “adolat” konsepti huquqiy yoki tarbiyaviy kategoriya emas, balki falsafiy-ekzistensial muammo sifatida konseptualizatsiya qilinadi. Bu diskursda adolat vijdoniy azob, gunoh va poklanish bilan bog‘lanib, ochiq va murakkab kognitiv model sifatida namoyon bo‘ladi.

**Turli badiiy diskurslarda “adolat” konsepti konseptosferasining tarkibiy birliklari.** Kognitiv lingvistika doirasida konseptosfera muayyan madaniyat va diskursda faol bo‘lgan konseptlar tizimi sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtayi nazardan, “adolat” konsepti alohida, mustaqil tushuncha sifatida emas, balki bir qator konseptual birliklar bilan uzviy bog‘langan markaziy konsept sifatida namoyon bo‘ladi. Ingliz, amerika, o‘zbek va rus badiiy diskurslari qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, “adolat” konseptosferasi tarkibida bir qator barqaror va takrorlanuvchi birliklar mavjud bo‘lib, ular diskurslararo umumiylikni ta’minlaydi.

**1. “QONUN” konsepti.** “Adolat” konseptosferasining eng muhim tarkibiy birliklaridan biri – “qonun” konseptidir. Qonun adolatning tashqi, rasmiy va normativ mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Badiiy diskursda qonun ko‘pincha ijtimoiy tartib, rasmiy baholash va majburiy javobgarlik bilan bog‘liq holda aktualizatsiya qilinadi. R.U. Langaker ta’kidlaganidek: “Til orqali ifodalangan ma’no har doim muayyan me’yoriy va baholovchi modelga tayangan holda shakllanadi” [4]. Mazkur fikr “adolat” va “qonun” konseptlari o‘rtasidagi kognitiv bog‘liqlikni tushuntiradi. Turli badiiy diskurslarda “qonun” konsepti adolatning obyektiv o‘lchovi sifatida xizmat qiladi, biroq u har doim ham yakuniy mezon sifatida qabul qilinmaydi.

**2. “VIJDON” konsepti.** “Adolat” konseptosferasida “vijdon” konsepti ichki baholash mexanizmini ifodalaydi. Agar qonun tashqi nazorat vositasi bo‘lsa, vijdon adolatning subyektiv va axloqiy mezon hisoblanadi. Badiiy diskursda vijdon ko‘pincha qahramonning ichki nutqi, ikkilanishi

## **“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

va axloqiy tanlovi orqali ifodalanadi. V.I. Karasik qadriyatga yo‘naltirilgan diskurs haqida shunday deydi: “Axloqiy baholash diskursda ochiq hukm orqali emas, balki shaxsning ichki pozitsiyasi orqali namoyon bo‘ladi” [6]. Bu holat “adolat” konseptining badiiy diskursda faqat ijtimoiy emas, balki shaxsiy mas’uliyat bilan ham bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

**3. “JAZO” konsepti.** “Jazo” konsepti “adolat” konseptosferasida muhim regulyativ birlik hisoblanadi. U buzilgan me‘yorni tiklash, muvozanatni qayta o‘rnatish funksiyasini bajaradi. Badiiy diskursda jazo nafaqat huquqiy oqibat, balki ramziy va axloqiy mazmun kasb etadi. Misol uchun, J.Lakof konseptual modellar haqida fikr yuritar ekan, shunday ta’kidlaydi: “Abstrakt tushunchalar inson ongida sabab-oqibat sxemalari orqali shakllanadi” [2]. “Jazo” konsepti ana shu sabab-oqibat sxemasining markaziy elementi sifatida adolatni anglash jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

**4. “JAVOBGARLIK” konsepti.** “Adolat” konseptosferasining yana bir muhim tarkibiy qismi – “javobgarlik” konseptidir. Javobgarlik shaxsning o‘z xatti-harakatlari uchun mas’ul bo‘lishini anglatadi va adolatni passiv baho emas, balki faol ijtimoiy munosabat sifatida talqin qilish imkonini beradi. Badiiy diskursda javobgarlik ko‘pincha qahramonning tanlovi, qarori va uning oqibatlari orqali ochiladi. Bu birlik “adolat” konseptini dinamik jarayon sifatida ko‘rsatadi.

**5. “KECHIRIM” konsepti.** Kechirim “adolat” konseptosferasining gumanistik va madaniy jihatdan muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ba’zi diskurslarda kechirim jazoga qarama-qarshi qo‘yilsa, boshqalarida u adolatning muqobil shakli sifatida talqin qilinadi. Kechirim adolatni faqat jazolash bilan emas, balki murosaga kelish va axloqiy tiklanish bilan bog‘laydi.

Shunga asosan aytishimiz mumkinki, turli badiiy diskurslarda “adolat” konseptosferasi qonun, vijdon, jazo, javobgarlik va kechirim kabi barqaror birliklar asosida shakllanadi. Ushbu birliklar diskurslararo umumiylikni ta’minlab, “adolat” konseptining universal semantik yadrosini tashkil etadi.

**“Adolat” konseptining kognitiv-pragmatik funksiyalari va diskurslararo modeli.** “Adolat” konsepti badiiy diskursda faqat mazmuniy birlik emas, balki kuchli kognitiv-pragmatik mexanizm sifatida faoliyat yuritadi. U o‘quvchi tafakkuriga ta’sir ko‘rsatish, baholashni shakllantirish va axloqiy pozitsiyani yo‘naltirish vazifalarini bajaradi.

**1. Kognitiv funksiyalar.** Kognitiv jihatdan “adolat” konsepti quyidagi funksiyalarni bajaradi: (1) voqealarni baholash mezonini belgilaydi; (2) sabab-oqibat munosabatlarini tartibga soladi; (3) axloqiy me‘yorlar tizimini ongda faollashtiradi. T.A. van Deyk bu jarayonni quyidagicha izohlaydi: “Diskurs orqali bilim va baholash modellarini shakllantirish mumkin” [5]. Demak, “adolat” konsepti o‘quvchi ongida voqealarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlash uchun kognitiv tayanch vazifasini bajaradi.

**2. Pragmatik funksiyalar.** Pragmatik jihatdan “adolat” konsepti quyidagi vazifalarni bajaradi: (1) baholovchi funksiya – qahramon xatti-harakatlarini ijobiy yoki salbiy talqin qilish; (2) tarbiyaviy funksiya – axloqiy xulosa chiqarishga undash; (3) regulyativ funksiya – ijtimoiy va shaxsiy me‘yorlarni mustahkamlash; (4) ideologik funksiya – muayyan qadriyatlarni ustuvor qilish. Badiiy diskursda bu funksiyalar bevosita targ‘ibot orqali emas, balki obrazlar va syujet mexanizmlari orqali amalga oshiriladi.

**3. Diskurslararo konseptual model.** Qiyosiy tahlil asosida “adolat” konseptining quyidagi diskurslararo modelini ajratish mumkin: (1) yadro → adolat (me‘yor + baholash); (2) ichki qatlam → vijdon, javobgarlik; (3) tashqi qatlam → qonun, jazo; (4) muqobil qatlam → kechirim, murosas. Mazkur model “adolat” konseptining turli badiiy diskurslarda barqaror, ammo moslashuvchan ekanini ko‘rsatadi.

**“Adolat” konseptosferasining diskursiy dinamikasi va ssenariy modellari.** Badiiy diskursda konseptlar statik holda mavjud bo‘lmaydi, balki voqealar rivoji, qahramonlar harakati va muallif pozitsiyasi bilan bog‘liq holda dinamik ravishda aktualizatsiya qilinadi. Shu jihatdan “adolat” konsepti ham tayyor ma’no sifatida emas, balki diskursiy ssenariy doirasida shakllanadigan kognitiv tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi.

Kognitiv lingvistikada bunday tuzilmalar ko‘pincha ssenariy (script) yoki freym tushunchalari orqali izohlanadi. Ch.J. Fillmorga ko‘ra, ma’no alohida so‘zlar orqali emas, balki ular faollashtiradigan vaziyatlar majmuyi orqali anglanadi. Ushbu yondashuv “adolat” konseptining badiiy diskursda qanday ishlashini izohlashda muhim ahamiyatga ega.

Turli badiiy diskurslarda “adolat” konsepti quyidagi tipik diskursiy ssenariy asosida namoyon bo‘ladi: (1) me‘yorning buzilishi (nohaqlik, jinoyat, xiyonat); (2) ziddiyatning kuchayishi (ichki yoki tashqi konflikt); (3) baholash jarayoni (qonun, vijdon, jamiyat pozitsiyasi); (4) oqibat (jazo, kechirim, ichki tanlov); (5) muvozanatning tiklanishi yoki ochiq yakun.

Mazkur ssenariy barcha badiiy diskurslarda to‘liq yoki qisman namoyon bo‘lib, “adolat”

**“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

konseptosferasining dinamik modelini tashkil etadi. Shunday qilib, “adolat” konsepti badiiy diskursda harakatga keltiriladigan kognitiv mexanizm sifatida talqin qilinadi.

**“Adolat” konseptining baholovchi (aksiologik) tabiati va o‘quvchi ongiga ta’siri.** “Adolat” konsepti mohiyatan aksiologik, ya’ni qadriyatga yo‘naltirilgan tushuncha hisoblanadi. Badiiy diskursda u faktlarni bayon qilishdan ko‘ra, baholashni shakllantirish vazifasini bajaradi. Shu sababli “adolat” konsepti o‘quvchi ongida neytral bilim emas, balki axloqiy pozitsiya hosil qiladi.

T.A. van Deyk diskurs va baholash munosabatini quyidagicha izohlaydi: “Diskurs orqali nafaqat axborot, balki baholash va munosabatlar ham uzatiladi” [5]. Badiiy diskursda “adolat” konsepti ko‘pincha ochiq hukm shaklida emas, balki bilvosita baholash orqali amalga oshiriladi. Muallif o‘quvchini tayyor xulosaga olib kelmaydi, balki syujet, obraz va qarama-qarshiliklar orqali adolat haqidagi kognitiv modelni shakllantiradi.

Aksiologik jihatdan “adolat” konsepti quyidagi qarama-qarshi juftliklar orqali faollashadi: adolat ↔ nohaqlik, mas’uliyat ↔ befarqlik, halollik ↔ manfaatparastlik, jazo ↔ kechirim. Bu oppozitsiyalar o‘quvchi ongida baholovchi ramkani shakllantirib, “adolat” konseptining pragmatik ta’sirini kuchaytiradi. Natijada adolat badiiy diskursda faqat mavzu emas, balki o‘quvchini axloqiy mulohazaga undovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

**“Adolat” konseptining konseptosferaviy universalligi va madaniy moslashuvchanligi.** Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, “adolat” konsepti turli badiiy diskurslarda turlicha ifodalangan bo‘lsa-da, uning konseptosferaviy yadrosi barqaror saqlanadi. Bu yadroni me’yor, baholash va javobgarlik kabi asosiy semantik komponentlar tashkil etadi. Aynan shu komponentlar “adolat” konseptining universalligini ta’minlaydi. J.Lakof konseptlar universalligi va madaniy farqlanishi haqida shunday ta’kidlaydi: “Inson tafakkurida ayrim tushunchalar umumiy kognitiv asosga ega bo‘lsa-da, ular madaniyatga qarab turlicha shakllanadi” [2]. Mazkur fikr “adolat” konseptiga to‘liq tatbiq etilishi mumkin. Ingliz, amerika, o‘zbek va rus badiiy diskurslarida adolatning: yadrosi – umumiy; ifoda vositalari – turlicha; pragmatik yo‘nalishi – madaniy jihatdan moslashgan. Shu sababli “adolat” konsepti konseptosferaviy jihatdan universal, ammo diskursiy realizatsiyada milliy-madaniy xususiyatlarga ega bo‘lgan birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat uni qiyosiy kognitiv-pragmatik tahlil uchun ayniqsa qulay obyektga aylantiradi.

Yuqorida olib borilgan kognitiv-pragmatik tahlil natijalariga ko‘ra, badiiy diskursda “adolat” konsepti markaziy va ko‘p qatlamli kognitiv birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot “adolat” konseptining normativ, baholovchi, jazolovchi va axloqiy komponentlardan tashkil topgan murakkab tuzilishga ega ekanini hamda uning metaforik modellar orqali konseptualizatsiya qilinishini ko‘rsatdi. Qiyosiy yondashuv asosida adolat konseptining universal semantik yadrosi mavjudligi, biroq uning badiiy diskurslarda milliy-madaniy tafakkurga mos holda turlicha namoyon bo‘lishi asoslandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Fillmore C.J. Frame Semantics // Linguistics in the Morning Calm. – Seoul: Hanshin Publishing Co., 1982. – pp. 111–137.
2. Lakoff G. Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind. – Chicago: University of Chicago Press, 1987. – 614 p.
3. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 2008. – 256 p.
4. Langacker R.W. Cognitive Grammar: A Basic Introduction. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – 562 p.
5. van Dijk T.A. Discourse and Power. – New York: Palgrave Macmillan, 2008. – 308 p.
6. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Москва: ГНОЗИС, 2004. – 389, [1] с.
7. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. – Изд. 3-е, испр. и доп. – Москва: Академический проект, 2004. – 992 с.